



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 5 (7)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 5-son 2026 yil

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

5

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Minojiddinov A.A. Meva-sabzavot tarmog‘i korxonalarini boshqarishda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish yo‘llari	8
Mirzayev A.T., Dilnozaxon M. O‘zbekistonda turizm marketingi samaradorligini baholash va uni takomillashtirishning integratsiyalashgan mexanizmi.....	12
Shavkatov A.Sh. O‘zbekistonda kichik biznes rivojlanishining institutsional va makroiqtisodiy asoslari.....	16
Махаммаджанов М.М. Инновационная трансформация банковского сектора Узбекистана: общесистемные тенденции и финансовые результаты.....	20
Sativaldiyeva G.X. IFRS 16 “Ijara” xalqaro standartiga muvofiq ijara hisobidagi o‘zgarishlar.....	24
Ismailov X.M. Aloqa korxonalari moliyaviy barqarorligini ta‘minlash metodologiyasini takomillashtirish masalalari.....	28
Yusubov I.I. Mintaqada iqtisodiyotni barqarorlashtirishda raqamli xizmatlarning rivojlanishi.....	32
Saidaxmedov N.X. Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoiyatini shakllanishi va rivojlanishining zamonaviy nazariyalari.....	35
Istamqulov D.Q., Danyarova F.B. Milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni takomillashtirish yo‘llari.....	40
Aipova I.I. Resurs samaradorligini baholashning nazariy usullari va ko‘rsatkichlari.....	43
Mirzaraximova A.A. Tijorat banklari tomonidan aloqa sohasini moliyalashtirish samaradorligini oshirish yo‘llari.....	49
Xalimirzaev A.A. Yer va suv resurslaridan samarali foydalanishda hududiy ixtisoslashuvning ahamiyati va iqtisodiy samaradorligi.....	53
Sidikov Z.A. Sirdaryo viloyatida sanoatlashtirish jarayonining hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta‘siri.....	59
Usmanova N.Y. Raqamli iqtisodiyotda menejment qarorlarini qabul qilishda innovatsion texnologiyalarning roli.....	63
Ergashev R.X., Rajabaliyeva I.A. Transport-logistika infratuzilmasini raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirish va uning samaradorligini oshirish.....	67
Raximova D.S. Barqaror restoran amaliyotlari: oziq-ovqat chiqindilarini kamaytirish va qayta ishlashning innovatsion yondashuvlari.....	70
Narzullayeva X.A. Investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishning xalqaro tajribalari.....	76
Muxitdinov Sh.Z. Kichik agrobiznes subyektlarida mahsulotlar eksportini rivojlantirishga ta‘sir etuvchi omillar.....	84
No‘monov O.O‘. Agrotadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatiga ta‘sir etuvchi makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy omillarni kompleks baholash.....	88
Yeshimbetov U.X. O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlantirishda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish.....	92
Raximova K.N. Tadbirkorlik sharoitida yashil biznesni tashkil etish va rivojlantirishining o‘ziga xos xususiyatlari	97
Хошимов П.З., Тўрахожайев Х.Х. Ислоний банкларнинг ишлаш таомийллари ва ислон молия тизимининг Ўзбекистон иқтисодиётига таъбиқи.....	100
Sattarov R.A. An integrated methodological framework for evaluating and forecasting interregional economic cooperation: an input-output approach (evidence from Uzbekistan).....	107
Farmanov J.Z. Mintaqada asalarichilik ekotizimining tamoyillari va ekologik-geografik xususiyatlarini takomillashtirish	111
Qurbonov A.B. Janubiy iqtisodiy rayonda qishloq xo‘jaligi orxonlarining tarkibiy o‘zgarishi va agrar kooperatsiyani rivojlantirish yo‘nalishlari.....	114
Тоштемуров Т.Т. Ўзбекистонда кичик тадбиркорлик субъектлари фаолиятини кенгайтиришда солиқ механизмларида фойдаланиш масалалари.....	119
Arziyev M.A. O‘zbekiston iqtisodiyotini transformatsiyalash sharoitida oilaviy tadbirkorlikni rivjlanitirishning ustuvor yo‘nalishlari.....	122
Maxkamova S.Sh. Ekologik innovatsiyalar orqali yerni oqilona boshqarishning tashkiliy va iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish.....	127
Olimova N.X. Yashil moliyalashtirishning rivojlanish tendensiyalari hamda hozirgi amaliyoti: milliy kontekst	137
Zaylobitdinova H.X. Davlat oliy ta‘lim muassasalarining tijorat faoliyatini samarali boshqarish strategiyalari.....	141
Komilov A.I. Evolution of the catering industry in the context of digital technologies.....	145

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 5-son 2026 yil

Sotvoldiyev N.N. Mamlakatimizda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda mehnat bozoriga ta'sir etuvchi omillar.....	149
O'rinov A.A. Sanoat tarmoqlarining investitsion imkoniyatlarini barqarorlik indikatorlari asosida boshqarish mexanizmlari.....	154
Ahmadaliyeva R.A. O'zbekistonda xufyona iqtisodiyotga qarshi kurashish samaradorligi.....	158
Uzganbayeva D.T., Alimova Sh.F. The role of investment strategies in transforming small business entities into large corporate structures.....	162
Goziyev M.Sh., Abdufattoyeva M. Sun'iy intellekt asosida iqtisodiy qarorlar qabul qilish samaradorligini oshirish.....	167
Qobilov H., Uzganbayeva D.T. O'zbekiston iqtisodiyotida xususiy tadbirkorlikning ro'li: so'nggi yillardagi islohotlar sharoitida iqtisodiy o'sish va bandlikka qo'shayotgan hissi.....	170
Sotiboldiyeva R., Uzganbayeva D.T. O'zbekistonda xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishda moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining ahamiyati.....	174
Маматкулов З.Ш. Хизмат кўрсатиш фаолиятининг шакллантириш ва бошқаришда хориж тажрибаларидан самарали фойдаланишнинг инновацион йўналишлари.....	179
Shamsiddinov P., Uzganbayeva D.T. Iqtisodiyotning raqamlashtirishning afzaliklari va uning oqibatlari.....	185
Qosimov A.S. Jizzax viloyati mahallalarining qayta nomlanishi va demografik jarayonlar va iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari.....	189
Qodirov A., Tulaganov E.J., Berdimurodov U.S. Inson kapitalini kapitalizatsiya qilish va samaradorligini oshirish.....	192
Saidkarimova M.I., Sobirov O.A. Sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish yo'llari.....	199
Saidova M.J. Sanoat transformatsiyasi sharoitida kichik biznes va tadbirkorlikning o'rni (Andijon viloyati misolida)	203
Юсупов А.С., Пардаев Х.Ф. Динамическое управление международным портфелем акций: механизмы ребалансировки и преимущества глобальной диверсификации в условиях волатильности валютных рынков.....	206
Burxonov J.X., Soliyev I.I. Mehnat bozorini tartibga solishda innovatsion yondashuvlarning xorij tajribasi tahlili.....	213
Xaitbaev J.O. Mintaqa iqtisodiyotini barqarorligini ta'minlashda suv resurslaridan foydalanishning ko'p omilli ekonometrik modellari.....	217
Saidov U.S. Kichik tadbirkorlik subyektlarida ekologik innovatsiyalarni rag'batlantirishning moliyaviy yo'nalishlari.....	221
Nurmaxanmadov N.B. Iqtisodiyotning ekologiyaga ta'sir moyilligining oshib borishi muammosi.....	224
Xudayberdiyev K. Davlat xaridlarida elektron platformalar faoliyatini optimallashtirishda sun'iy intellektga asoslangan moderatsiya mexanizmlarining roli.....	230
Xolxo'jayev E.G'. Davlat xaridini tashkil etishda elektron savdolardan foydalanish samaradorligi hamda imkoniyatlari tahlili.	234
Rustamova F.A. Qishloq joylarda tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy samaradorligini baholash va uni oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari.....	238
Ikromov A. Iqtisodiy jarayonlarni ekonometrik modellashtirishda integro-differensial tenglamalarning o'rni va ularni tadqiq etish.....	241
Sarimsakov B.R., Usmonov J.Q. Xorijiy mamlakatlarda inson kapitalidan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida samarali foydalanish tajribalari.....	245
Maraimov I.R. O'zbekistonda kambag'allikni kamaytirish va aholi turmush farovonligini oshirish.....	251
Yusupov Sh.B. Xorazm viloyatida sanoat korxonalarining iqtisodiy samaradorligini baholash va oshirish yo'llari: 2020–2025 yillar tahlili va 2030 yilga prognoz.....	256
Chintemirova D.Sh. Hududlar kesimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish tendensiyalari.....	260
Xusanova Z.R. Ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning samaradorlik ko'rsatkichlari va unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar.....	265
Tajiboyev S.O., Gulimboyev S.I. Moliyaviy siyosatning investitsiya muhitiga ta'siri.....	270
Tajiboyev S.O. G'aznachilikda to'lovlarni amalga oshirish.....	275
Xaydarov M., Baxtiyorov I. Innovatsion iqtisodiyot g'oyalari va ularni oliy ta'lim tizimi orqali qo'llashning nazariy asoslari.....	279
Ким Т.В., «Зарубежный опыт развития циркулярной экономики и её роль в формировании ресурсосберегающей модели экономического развития».....	286

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” jurnali 5-son 2026 yil

Saydullayeva R.U. Analysis of financial efficiency and profitability in the green economy: the role of IAS and IFRS standards.....	292
Galatov A.A., Karimova G.A. O‘zbekistonda Islomiy moliyaviy xizmatlar ko‘rsatuvchi nobank tashkilotlar faoliyati va strategik boshqaruv tizimining tahlili.....	296
Tursunov F.U. Oliy ta‘lim sifati monitoringini takomillashtirish mexanizmlarini rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlari... ..	300
Yakhshiboev R.E. Retrieval-augmented generative AI for smart learning content.....	303
Ergashev S.A. Sanoat korxonalarini barqaror rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish: ilmiy-nazariy va amaliy asoslar.....	307
Абдуллаева Р.Ғ., Тажибаева Н.Ф. Ўзбекистон иқтисодиётида инвестицияларнинг устувор йўналишлари ва ривожланиш истиқболлари.....	311
Sayfullayev J. Why organizations struggle to implement green management practices: key barriers and practical solutions.....	316
Sirojiddinov K.I. Korxonaning raqobatbardoshligini baholash usullari.....	319
Ibraximov X.S. Mintaqalarda tadbirkorlik muhitini shakllantirishda kichik biznesni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning o‘rni va mexanizmlari.....	324
Tajibayev K.Q. Farg‘ona vodiysida kichik biznes sub’ektlari raqobatbardoshligini oshirishning metodologik asoslari.....	328
Abdulxakimov Z.T. Barqaror rivojlanish evolyusiyasi va tarkibiy qismlari masalalari.....	332
Pazilidinov M.M. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda xorijiy mamlakatlarning raqamlashtirish tajribasi.....	337
Жураева М.З., Ахмедов Р.М. Экосистема применения системного подхода в менеджменте транспортной инфраструктуры.....	341
Ахмедов Р.М. Основные требования к разработке системного подхода в менеджменте дорожного хозяйства Республики Узбекистан.....	348
Mamasiddiqova F.X. Qishloq xo‘jaligida mahallalar ixtisosligi: nazariy asoslar, regional tahlil va rivojlantirish istiqbollari.....	353
To‘rayev A.A. Mehnat bozorini texnologik transformatsiyalash sharoitida ishchi kuchi raqobatbardoshligini oshirish mexanizmlari.	358
Солиев И.И. Концептуальные основы институциональной автономии вузов в условиях модернизации системы образования Узбекистана.....	362
Xasanov S.Q. Sanoat korxonalarini rivojlantirishda modernizatsiya va klaster yondashuvining o‘rni.....	365
Murodov A. Aholining real pul daromadlarini va xarid qobiliyatini oshirishning nazariy asoslari.....	369
Карабаев Р.З. Искусственный интеллект в цифровой экономике Узбекистана.....	374
Rasulova Sh.A. Bozor iqtisodiyotida monopoliyaning mohiyati, shakllari va uning O‘zbekiston iqtisodiyotiga ta‘siri.....	378
Salimov A.F., Rasulova Sh.A. Bozor muvozanati va unga ta‘sir ko‘rsatuvchi omillar.....	381
Sattarova G.X. O‘zbekiston logistika bozorida yuk tashish xavflarini sug‘urta orqali kamaytirishning iqtisodiy samaradorligi.....	385
Муродхўжаева Ф.М. Махаллий саноатни шакллантиришда кластер ёндашуви ва 2030 йилгача трансформациянинг прогноз параметрлари (Наманган вилояти мисолида).....	389
Yoqubjonov R.R. Kichik biznes mahsulotlari raqobatbardoshligini oshirishda innovatsion yondashuvlar.....	396
Nasritdinov B.X. Risklarni integral baholash kichik biznesda moslashuvchan boshqaruv tizimi asbobi sifatida	400
Abdurazzoqov H.A. O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonining hozirgi holati va tendentsiyalari.....	406
Turgunov M.M., Soliyev I.I. Milliy innovatsion tizim samaradorligini oshirishning strategik yo‘nalishlari.....	411
Kuzimuratova D.M. O‘zbekiston Respublikasida tijorat banklarining investitsiya faoliyatini rivojlantirish va takomillashtirish.....	414
Soyibjonov I.S. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarini yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida rivojlantirish.....	419
Axmadjanov I.I. Shaharlar va shahar aglomeratsiyalari mintaqalar va mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining drayveri.....	423
Odinayev G‘.J. Nogironligi bo‘lgan aholi qatlamini strategik sohalarda band qilish loyihalari.....	427
Abduvahobov V.B. Jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashishning global standartlari va O‘zbekiston tajribasi: kompleks tahlil.....	430
Қўзиёва Н.Н. Билвосита солиқларнинг шаклланиши ва ривожланиб бориши.....	435

**YER VA SUV RESURLARIDAN SAMARALI FOYDALANISHDA HUDUDIIY
IXTISOSLASHUVNING AHAMIYATI VA IQTISODIIY SAMARADORLIGI**

**ЗНАЧЕНИЕ И ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬ РЕГИОНАЛЬНОЙ
СПЕЦИАЛИЗАЦИИ В РАЦИОНАЛЬНОМ ИСПОЛЬЗОВАНИИ ЗЕМЕЛЬНЫХ И
ВОДНЫХ РЕСУРСОВ.**

**THE IMPORTANCE AND ECONOMIC EFFICIENCY OF REGIONAL
SPECIALIZATION IN THE EFFICIENT USE OF LAND AND WATER RESOURCES**

Xalmirzaev Axmadjan Axunovich

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti

Orcid ID: <https://orcid.org/0009-0001-4900-9394>

Annotatsiya

Yer va suv resurslaridan samarali foydalanishda hududiy ixtisoslashuv muhim omil hisoblanadi. Ushbu yondashuv tabiiy sharoitlar, tuproq unumdorligi va suv ta‘minoti darajasini inobatga olgan holda ishlab chiqarishni oqilona joylashtirishni nazarda tutadi. Natijada resurslardan foydalanish samaradorligi oshib, ortiqcha xarajatlar kamayadi. Hududiy ixtisoslashuv qishloq xo‘jaligi mahsuldorligini oshirish va ekologik barqarorlikni ta‘minlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, suv tanqisligi sharoitida resurslarni optimal taqsimlash orqali yuqori iqtisodiy natijalarga erishiladi. Mazkur yondashuv resurs tejovchi rivojlanish modelini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: Hududiy ixtisoslashuv, yer resurslari, suv resurslari, resurslardan samarali foydalanish, iqtisodiy samaradorlik, ekologik barqarorlik.

Рациональное использование земельных и водных ресурсов во многом зависит от территориальной специализации. Данный подход предусматривает оптимальное размещение производства с учетом природных условий, плодородия почв и уровня водообеспеченности. В результате повышается эффективность использования ресурсов и снижаются избыточные затраты. Территориальная специализация способствует росту продуктивности сельского хозяйства и обеспечению экологической устойчивости. В условиях дефицита воды достигаются высокие экономические результаты за счет оптимального распределения ресурсов. Данный подход является основой формирования ресурсосберегающей модели развития.

Ключевые слова: Территориальная специализация, земельные ресурсы, водные ресурсы, эффективное использование ресурсов, экономическая эффективность, экологическая устойчивость.

Efficient use of land and water resources largely depends on territorial specialization. This approach involves the rational allocation of production based on natural conditions, soil fertility, and water availability. As a result, resource use efficiency increases while excessive costs are reduced. Territorial specialization contributes to higher agricultural productivity and ensures environmental sustainability. Under conditions of water scarcity, high economic outcomes are achieved through optimal resource allocation. This approach serves as a foundation for the formation of a resource-saving development model.

Keywords: Territorial specialization, land resources, water resources, efficient use of resources, economic efficiency, environmental sustainability

Bugungi kunda qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish masalasi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, iqlim o‘zgarishi ta‘sirida suv zaxiralarining kamayishi va yerlarning sifat jihatdan yomonlashuvi resurslardan foydalanish samaradorligiga jiddiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Bu esa mavjud tabiiy resurslarni oqilona boshqarish, ularni hududiy sharoitlarga mos ravishda taqsimlash va ishlab chiqarishni maqsadli tashkil etishni taqozo etadi.

Mazkur sharoitda hududiy ixtisoslashuv alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki har bir hududning tabiiy, iqtisodiy va ijtimoiy xususiyatlari turlicha bo‘lib, ularni hisobga olmagan holda resurslardan foydalanish samaradorlikning pasayishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun yer va suv resurslarini hududiy ixtisoslashuv asosida taqsimlash va baholash orqali ishlab chiqarish natijadorligini oshirish muhim ilmiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi yer va suv resurslaridan foydalanish jarayonida hududiy ixtisoslashuvning iqtisodiy samaradorlikka ta‘sirini aniqlash va uni oshirishga qaratilgan takliflarni ishlab chiqishdan iborat.

Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: yer va suv resurslarining hududiy holatini o‘rganish; hududiy ixtisoslashuvni shakllantiruvchi omillarni tahlil qilish; resurslardan foydalanish samaradorligini baholash; ixtisoslashuv va samaradorlik o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqlash hamda samaradorlikni oshirishga qaratilgan amaliy takliflar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda yer va suv resurslaridan foydalanish samaradorligini hududiy ixtisoslashuv bilan bog‘liq holda baholashga qaratilgan kompleks yondashuv taklif etildi. Bu yondashuv doirasida resurslardan foydalanish natijadorligi, ixtisoslashuv darajasi va hududiy omillar o‘rtasidagi bog‘liqlikni aks ettiruvchi ko‘rsatkichlar tizimi ishlab chiqildi hamda ular asosida hududlar o‘rtasida iqtisodiy samaradorlikdagi farqlar izohlab berildi.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati shunda namoyon bo‘ladiki, unda resurslar samaradorligi va hududiy ixtisoslashuv o‘rtasidagi bog‘liqlik ilmiy asosda yoritildi. Olingan natijalardan hududlar kesimida yer va suv resurslarini maqsadli taqsimlash, qishloq xo‘jaligi faoliyatini samarali tashkil etish va iqtisodiy natijadorlikni oshirishda foydalanish mumkin.

Yer va suv resurslaridan samarali foydalanish hamda hududiy ixtisoslashuv masalalari xorijiy tadqiqotlarda keng yoritilgan bo‘lib, ularda asosan resurslar va iqtisodiy samaradorlik o‘rtasidagi bog‘liqlik o‘rganilgan.

Zhang Q. va boshqalar (2025) ishlarida yer va suv resurslarini hududiy imkoniyatlarga mos taqsimlash iqtisodiy va ekologik samaradorlikni oshirishi ko‘rsatilgan. [7] Khachatryan L. va hammualliflar (2025)[5] hamda Sodikov K. (2022) tadqiqotlarida esa suv ta‘minotiga mos ixtisoslashuvni tanlamaslik samaradorlikni pasaytirishi asoslangan.[6]

Feng T. va boshqalar (2023) resurslardan kompleks (suv–yer–energiya) foydalanish orqali barqaror rivojlanishga erishish mumkinligini ta‘kidlaydi.[4] Aznar-Sánchez J. va hammualliflar (2019) yerdan samarali foydalanish va ixtisoslashuvni rivojlantirish samaradorlikni oshirishda muhim omil ekanini ko‘rsatgan.[2]

Shuningdek, Diao Y. va boshqalar (2025) resurslarni muvofiqlashtirilgan boshqarish iqtisodiy natijadorlikni oshirishini isbotlagan bo‘lsa,[3] Ali A. va hammualliflar (2025) raqamli texnologiyalar orqali suv resurslarini samarali boshqarish imkoniyatlarini yoritgan.[1]

Umuman, ilmiy tadqiqotlar yer va suv resurslaridan samarali foydalanish hududiy ixtisoslashuv bilan bog‘liq ekanini ko‘rsatadi. Biroq bu jarayonni kompleks iqtisodiy-geografik yondashuv asosida baholash yetarlicha chuqur o‘rganilmagan. Shu bois, yer, suv resurslari tarkibidagi o‘zgarishlar va ulardan foydalanish holatini tahlil qilish orqali hududiy ixtisoslashuv hamda samaradorlik o‘rtasidagi bog‘liqlik aniqlanadi.

Tadqiqotda tizimli va integral yondashuv asos qilib olindi. Bu orqali yer va suv resurslari, ixtisoslashuv darajasi hamda hududiy omillar o‘zaro bog‘liq holda tahlil qilindi. Har bir hudud alohida tizim sifatida qaralib, uning tabiiy va iqtisodiy xususiyatlari hisobga olindi.

Mazkur tadqiqotda statistik usul orqali yer va suv resurslari, hosildorlik va suv sarfi ko‘rsatkichlari tahlil qilindi hamda ularning o‘zgarishlari aniqlandi. Qiyosiy usul yordamida hududlar o‘zaro solishtirilib, samaradorlik darajasidagi farqlar belgilandi. Tahlil va umumlashtirish usuli

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 5-son 2026 yil

asosida ma'lumotlardan asosiy xulosalar chiqarildi va omillar ta'siri izohlandi. Guruhlash usuli orqali hududlar samaradorlik darajasiga ko'ra yuqori, o'rta va past guruhlariga ajratildi.

O'zbekiston Respublikasi yer fondini tadqiq etish hududlarda yer resurslarining tarkibiy holati, ularning taqsimlanish xususiyatlari va vaqt bo'yicha o'zgarishlarini aniqlash imkonini beradi. Bu jarayon yerdan foydalanish natijadorligini baholash va uni hududiy ixtisoslashuv bilan bog'liq holda tahlil qilish uchun asos yaratadi.

1-jadval. O'zbekiston yer fondi tarkibidagi o'zgarishlar.[9]

Yer toifalari	1990 yil (ming ga)	1990 (%)	2025 yil (ming ga)	2025 (%)
Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar	33167,8	72,76	26220,7	58,41
Aholi punktlari yerlar	197,2	0,43	221,7	0,49
Sanoat, transport va boshqa yerlar	1821,2	4	799,8	1,78
Tabiatni muhofaza qilish, sog'lomlashtirish yerlar	13,9	0,03	4258,6	9,49
Tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar	32,4	0,07	32,4	0,07
O'rmon fondi yerlar	2507,5	5,5	10967,7	24,43
Suv fondi yerlar	618,8	1,36	1041,3	2,32
Zaxira yerlar	7258,6	15,92	1351	3,01
Jami yerlar	45585	100	44893,2	100

1-Jadval ma'lumotlari O'zbekistonda yer fondi tarkibida 1990–2025 yillar davomida sezilarli tarkibiy o'zgarishlar yuz berganini ko'rsatadi. Bu o'zgarishlar hududiy ixtisoslashuv va resurslardan foydalanish samaradorligi bilan bevosita bog'liq.

Avvalo, qishloq xo'jaligi yerlari ulushi 72,76% dan 58,41% gacha kamaygan, ya'ni taxminan 14,3 foiz punktga qisqargan. Bu holat agrar sektorda ekstensiv rivojlanishdan intensiv va ixtisoslashgan modelga o'tish zarurligini ko'rsatadi. Ya'ni, yer maydoni qisqargan sharoitda samaradorlikni oshirish faqat to'g'ri ixtisoslashuv orqali ta'minlanadi.

O'rmon fondi yerlarining 5,5% dan 24,43% gacha keskin oshishi (deyarli 4,5 barobar) resurslardan foydalanishda ekologik yo'nalish kuchayganini anglatadi. Bu ayrim hududlarda qishloq xo'jaligi ixtisoslashuvining kamayib, o'rmonchilik va tabiiy resurslarni tiklashga yo'naltirilayotganini ko'rsatadi. Bu esa uzoq muddatli samaradorlik (ekologik barqarorlik)ni oshiradi.

Suv fondi yerlarining 1,36% dan 2,32% gacha oshishi suv resurslarining iqtisodiy ahamiyati ortib borayotganini bildiradi. Bu holat suvga bog'liq ixtisoslashuvni qayta ko'rib chiqish zarurligini ko'rsatadi. Suv cheklangan hududlarda paxta yoki sholi kabi suvtalab tarmoqlar o'rniga kam suv talab qiluvchi ixtisoslashuv samaradorlikni oshiradi.

Zaxira yerlarining 15,92% dan 3,01% gacha kamayishi yerlarning iqtisodiy aylanmaga faol jalb etilganini ko'rsatadi. Bu ijobiy holat bo'lsa-da, agar ixtisoslashuv noto'g'ri tanlansa, resurslardan samarasiz foydalanish xavfi ortishi mumkin.

Shu bilan birga, sanoat va infratuzilma yerlarining o'sishi iqtisodiyotda tarmoqlararo ixtisoslashuv kuchayganini anglatadi. Bu ayrim hududlarda agrar ixtisoslashuvning qisqarib, sanoat ixtisoslashuviga o'tish jarayonini ko'rsatadi.

O'zbekistonda qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarning jami 4324 ming gektari sug'oriladigan yer bo'lib, shundan 1882,6 ming gektari turli darajada sho'rlangan. Mazkur holat hududlar kesimida keskin farqlanib, yer resurslaridan foydalanish samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan, hududiy ixtisoslashuvni tabiiy sharoit va yer holatiga mos ravishda tashkil etish iqtisodiy natijadorlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 5-son 2026 yil

Xususan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi (365,2 ming ga), Xorazm (263,3 ming ga), Sirdaryo (277,7 ming ga) va Buxoro (237,9 ming ga) viloyatlarida sho‘rlangan yerlar ulushi juda yuqori. Bunday sharoitda resurs talabchan ekinlarni saqlab qolish iqtisodiy jihatdan samarasiz bo‘lib, xarajatlar ortishi va hosildorlik pasayishiga olib keladi. Shuning uchun ushbu hududlarda tuzga chidamli va kam resurs talab qiluvchi ekin turlariga ixtisoslashuvni kuchaytirish maqsadga muvofiq. Bu orqali mavjud resurslardan oqilona foydalanish va barqaror daromadni ta‘minlash mumkin.

Jizzax (216,8 ming ga), Qashqadaryo (217,3 ming ga) va Navoiy (91,8 ming ga) viloyatlarida sho‘rlanish o‘rta darajada bo‘lib, bu yerlarda meliorativ choralar bilan birga ixtisoslashuvni maqbul tashkil etish muhim hisoblanadi. Ya‘ni, yer holatini yaxshilash bilan bir vaqtda ekin turlarini to‘g‘ri tanlash orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish imkoniyati mavjud.

Samarqand (5,7 ming ga), Toshkent (8,8 ming ga), Andijon (5,4 ming ga) va Namangan (23,7 ming ga) viloyatlarida esa sho‘rlanish darajasi past. [8] Bu hududlarda yuqori qiymatli qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishga ixtisoslashuvni chuqurlashtirish orqali har bir gektardan olinadigan iqtisodiy samarani oshirish mumkin. Bunday yondashuv hududiy rivojlanishda yuqori natijalarni ta‘minlaydi.

O‘zbekistonda suv resurslaridan foydalanish hajmi yillik o‘rtacha 51–53 km³ ni tashkil etadi. Ushbu resurslarning asosiy qismi, ya‘ni taxminan 80 foizi transchegaraviy daryolar hissasiga to‘g‘ri kelib, mamlakat suv ta‘minotining tashqi manbalarga yuqori darajada bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, respublika hududidagi yer osti suvlarining tabiiy zaxiralari ham muayyan ahamiyatga ega bo‘lib, ularning baholangan hajmi 27,6 km³ atrofida ekani qayd etiladi. Biroq ushbu zaxiralar hududlar bo‘yicha notekis taqsimlanganligi sababli, ulardan foydalanish imkoniyatlari cheklangan.

Amalda suv iste‘molchilari ehtiyoji asosan bir nechta manbalarni uyg‘unlashtirgan holda qondiriladi. Jumladan, asosiy ulush yer usti suvlari hissasiga to‘g‘ri kelib, ular orqali yillik taxminan 50,9 km³ suv ishlatiladi. Shu bilan birga, yer osti suvlaridan foydalanish hajmi nisbatan kam bo‘lib, o‘rtacha 0,5 km³ ni tashkil etadi. Qayta ishlatiladigan kollektor-drenaj suvlari esa qo‘shimcha manba sifatida xizmat qilib, ularning hajmi 1,6 km³ ga teng.


Suv resurslarining tarmoqlararo taqsimoti tahlil qilinganda, ularning mutlaq ko‘p qismi qishloq xo‘jaligiga yo‘naltirilgani aniqlanadi. Xususan, umumiy suv iste‘molining 90–91 foizi agrar sektor hissasiga to‘g‘ri keladi. Qolgan qismi esa kommunal-maishiy xizmatlar (4,5%), sanoat (1,4%), baliqchilik (1,2%), issiqlik energetikasi (0,5%) va boshqa sohalar (1%) o‘rtasida taqsimlangan.

2-jadval. 2025 gidrologik yilda sug‘orish ishlariga olingan jami suv miqdori, mln.m3 [8]

ID	Viloyatlar	Limit/ mln.m3	Amalda/ mln.m3	Jami sug‘oriladi gon maydonlar
1	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	4213	4548	517,1
2	Andijon viloyati	1856	1817	271,5
3	Buxoro viloyati	2470	2509	280,2
4	Jizzax viloyati	1696	1636	303,9
5	Qashqadaryo viloyati	3143	3028	513,5
6	Navoiy viloyati	957	936	123,1
7	Namangan viloyati	1699	1702	289,7
8	Samarqand viloyati	2194	2204	380,3
9	Surxondaryo viloyati	2102	1994	325,1
10	Sirdaryo viloyati	1652	1611	287,1
11	Toshkent viloyati	2208	2159	400,2
12	Farg‘ona viloyati	2064	1952	368,7
13	Xorazm viloyati	2952	3055	264,6
14	2025 gidrologik yilda sug‘orish ishlariga olingan jami suv miqdori, mln.m3	29206	29151	4324

2025 yil gidrologik ma’lumotlarga ko‘ra, respublika bo‘yicha qishloq xo‘jaligida jami 29 206 mln m³ suv limiti belgilangan bo‘lib, amalda 29 151 mln m³ suv sarflangan. Umumiy holatda suvdan foydalanish limitga yaqin bo‘lsa-da, hududlar kesimida jiddiy farqlar mavjud. Jumladan, Qoraqalpog‘iston Respublikasida suv sarfi limitdan 335 mln m³ ga, Xorazm viloyatida 103 mln m³ ga, Buxoro viloyatida 39 mln m³ ga ortiq bo‘lgan. Bu holat mazkur hududlarda suv resurslaridan foydalanish samaradorligi past ekanligini ko‘rsatadi. Aksincha, Qashqadaryo (–115 mln m³), Farg‘ona (–112 mln m³), Surxondaryo (–108 mln m³) kabi hududlarda suv sarfi limitdan kam bo‘lib, nisbatan tejamkor foydalanish kuzatiladi.

Hududiy ixtisoslashuv yer va suv resurslarining hajmi, sifati va taqsimlanishiga asoslangan holda shakllanadi. Bu yerda resurs → ixtisoslashuv → samaradorlik zanjiri yuzaga keladi. Ya’ni, suvga boy hududlarda suvtalab tarmoqlar, suv tanqis hududlarda esa resurs tejovchi tarmoqlar rivojlanadi. Natijada resurslardan foydalanish muvozanatlashadi. (1-rasm)



1-rasm. Yer va suv resurslaridan foydalanish samaradorligini belgilovchi omillar.

Yer va suv resurslariga mos hududiy ixtisoslashuv ishlab chiqarishni tabiiy sharoitlarga moslashtiradi. Bu yer va suv resurslariga tushadigan bosimni kamaytiradi. Xususan, sho‘rlangan hududlarda kam suv talab qiladigan ekinlarni joylashtirish tuproq degradatsiyasini cheklaydi. Mazkur yondashuv agroekologik moslashuv va barqarorlikni ta’minlaydi, ya’ni resurslardan foydalanish ekologik muvozanatni saqlagan holda amalga oshiriladi.

Yer va suv resurslariga mos hududiy ixtisoslashuv sharoitida ishlab chiqarish jarayonlari optimallashtiriladi. Natijada har bir birlik suvga to‘g‘ri keladigan mahsulot hajmi oshadi. Bu hosildorlikning ortishiga, hosildorlik esa rentabellikning oshishiga olib keladi. Mazkur jarayon iqtisodiy samaradorlikning o‘shish mexanizmini ifodalaydi, ya’ni hududiy ixtisoslashuv yer va suv resurslaridan foydalanishda iqtisodiy natijadorlikni ta’minlovchi asosiy omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Aniq ixtisoslashgan hududlarda resurslarga mos texnologiyalar tanlanadi. Suv tanqis hududlarda tomchilatib sug‘orish, suvga boy hududlarda intensiv irrigatsiya qo‘llaniladi. Bu texnologik transformatsiya samaradorlikni oshirib, suv yo‘qotishlarini kamaytiradi.

Hududiy ixtisoslashuv resurslarni boshqarishda differensial siyosatni talab qiladi. Bu esa suv taqsimotini optimallashtiradi, hududiy rejalashtirishni aniqlashtiradi, monitoring va nazorat samaradorligini oshiradi. Natijada resurslardan foydalanishda institutsional samaradorlik kuchayadi.

Hududiy ixtisoslashuv aholi bandligi va daromadlarini resurslarga mos ravishda shakllantiradi. Qishloq hududlarida barqaror bandlikni ta’minlaydi, hududlararo iqtisodiy tafovutlarni kamaytiradi va migratsiyani muvozanatlashtiradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko’rsatadiki, yer va suv resurslaridan foydalanish samaradorligi hududiy ixtisoslashuv darajasi hamda yer holati bilan chambarchas bog’liq. Yer fondi tarkibidagi o’zgarishlar va sug’oriladigan yerlarning sho’rlanish darajasi hududlar kesimida sezilarli farqlanib, bu holat qishloq xo’jaligi ishlab chiqarishining iqtisodiy natijadorligiga bevosita ta’sir ko’rsatadi.

Aniqlandiki, resurslar tabiiy sharoitlarga mos ravishda taqsimlanmagan hududlarda samaradorlik past bo’ladi, aksincha, ixtisoslashuv yer va suv resurslari imkoniyatlariga mos tashkil etilgan hududlarda yuqori iqtisodiy natijalarga erishiladi. Shuningdek, yer resurslarining sho’rlanish darajasi yuqori bo’lgan hududlarda an’anaviy ekin turlarini saqlab qolish iqtisodiy jihatdan samarasiz ekanligi asoslandi.

Umuman olganda, yer va suv resurslaridan samarali foydalanishni ta’minlash hududiy ixtisoslashuvni to’g’ri tashkil etish, resurslarni maqsadli taqsimlash va ulardan kompleks yondashuv asosida foydalanishni talab qiladi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi amaliy takliflar ishlab chiqildi:

- Hududiy ixtisoslashuvni shakllantirishda yer va suv resurslarining tabiiy holati, ayniqsa sho’rlanish darajasi asosiy mezon sifatida hisobga olinishi lozim.

- Sho’rlangan yerlar ulushi yuqori bo’lgan hududlarda (Qoraqalpog’iston, Xorazm, Sirdaryo, Buxoro) tuzga chidamli va kam resurs talab qiluvchi ekin turlariga bosqichma-bosqich o’tish maqsadga muvofiq.

- O’rta darajada sho’rlangan hududlarda meliorativ tadbirlarni kuchaytirish bilan birga ixtisoslashuvni optimallashtirish zarur.

- Sho’rlanish darajasi past bo’lgan hududlarda yuqori qiymatli va intensiv qishloq xo’jaligi mahsulotlarini yetishtirishga ixtisoslashuvni chuqurlashtirish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish mumkin.

- Suv resurslari cheklangan sharoitda suv tejamkor texnologiyalarni joriy etish va suv sarfini kamaytirishga qaratilgan agroteknik tadbirlarni kengaytirish lozim.

- Yer va suv resurslaridan foydalanish samaradorligini baholashda kompleks iqtisodiy-geografik yondashuvni amaliyotga joriy etish zarur.

Shunday qilib hududiy ixtisoslashuvni tabiiy resurslar imkoniyatlariga mos ravishda tashkil etish yer va suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishning asosiy sharti hisoblanadi. Agar ixtisoslashuv tabiiy resurslarga (yer, suv), iqlim sharoitiga, iqtisodiy talabga mos bo’lsa, unda resurslardan foydalanish samaradorligi keskin oshadi. Aks holda, hatto resurslar yetarli bo’lgan hududlarda ham iqtisodiy natijadorlik past bo’lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Ali A., Baloch M., Naveed M., Nigar A., Almalki A., Rasool A., Gedfew M., Arafat A. Advanced satellite-based remote sensing and data analytics for precision water resource management // Scientific Reports. – 2025.
2. Aznar-Sánchez J., Piquer-Rodríguez M., Velasco-Muñoz J., Manzano-Agugliaro F. Worldwide research trends on sustainable land use in agriculture // Land Use Policy. – 2019.
3. Diao Y., Xia J., Dong Q., Zuo Q., Xie M. From resource matching to economic sustainability: A multi-stage analysis of water-land-economy interactions // Journal of Environmental Management. – 2025.
4. Feng T., Liu B., Ren H., Yang J., Zhou Z. Optimized model for coordinated development of regional sustainable agriculture based on water–energy–land–carbon nexus system // Energy Conversion and Management. – 2023.

5. Khachatryan L., Asatryan H., Poghosyan S., Azatyan L., Kocharyan T., Matinyan A., Manucharyan M. The agriculture specialization through the lens of PESTLE analysis // Open Agriculture. – 2025.
6. Sodikov K., Arabov F., Bobohonzoda K., Asomuddin K., Fozilov S. Sustainable development of ecological and economic use of agricultural land and water resources of the Republic of Tajikistan // IOP Conference Series: Earth and Environmental Science. – 2022.
7. Zhang Q., Wu Y., Zhang G., Xu Y., Hu B., Sun J., Yu Y., Guo Y. Optimizing the balance among water use, food production, and ecosystem integrity at the regional scale // Agricultural Water Management. – 2025.
8. <https://data.egov.uz/uzbKr/data>
9. Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлиги хузуридаги Кадастр агентлигининг Давлат кадастрлари палатаси. Тошкент-2025.

UDK:338.45

**SIRDARYO VILOYATIDA SANOATLASHTIRISH JARAYONINING HUDUDIY
IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANISHGA TA’SIRI**

**ВЛИЯНИЕ ПРОЦЕССА ИНДУСТРИАЛИЗАЦИИ В СЫРДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ
НА СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ РЕГИОНА.**

**IMPACT OF INDUSTRIALIZATION PROCESS IN SYRDARYA REGION ON
REGIONAL SOCIO-ECONOMIC DEVELOPMENT**

Sidikov Zafar Absalom o‘g‘li

O‘zbekiston Milliy Universiteti “Davlat va korporativ strategiyalari” yo‘nalishi magistranti

Annotatsiya

Mazkur maqolada Sirdaryo viloyati misolida sanoatlashtirish jarayonining hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta’siri tahlil qilingan. Tadqiqot davomida sanoat ishlab chiqarish hajmi, korxonalar soni, kichik biznes ulushi kabi asosiy ko‘rsatkichlar statistik tahlil qilindi hamda Ekonometrika usullari asosida ularning o‘zaro bog‘liqligi baholandi. Natijalar sanoat ishlab chiqarish hajmining oshishi hududiy iqtisodiy o‘sishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini, kichik biznesning sanoat rivojlanishida muhim rol o‘ynashini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, sanoatning hududiy nomutanosibligi va texnologik darajasi pastligi asosiy muammolar sifatida aniqlanib, ularni bartaraf etish bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Kalit so‘zlar: sanoatlashtirish, hududiy rivojlanish, Sirdaryo viloyati, sanoat ishlab chiqarishi, kichik biznes, iqtisodiy o‘sish, Ekonometrika, regressiya tahlili, hududiy nomutanosiblik.

В данной статье проанализировано влияние процесса индустриализации на социально-экономическое развитие региона на примере Сырдарьинская область. В ходе исследования проведён статистический анализ основных показателей, таких как объём промышленного производства, количество предприятий и доля малого бизнеса, а также оценена их взаимосвязь с использованием методов Эконометрика. Результаты показали, что рост промышленного производства оказывает положительное влияние на экономическое развитие региона, а малый бизнес играет важную роль в индустриализации. Вместе с тем выявлены проблемы территориальной неравномерности и низкого уровня технологического развития промышленности, предложены практические рекомендации по их устранению.

Ключевые слова: индустриализация, региональное развитие, Сырдарьинская область, промышленное производство, малый бизнес, экономический рост, Эконометрика, регрессионный анализ, региональные диспропорции.